



**MILLIY GVARDIYA QO'RIQLASH XIZMATI TOMONIDAN  
HUQUQBUZARLIKLAR BARVAQT PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISHDA  
HAMKORLIKNI TA'MINLASH**

Adashov Hojiboy Xusan o'g'li  
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi  
universiteti magistranti

**Annotatsiya:** maqolada huquqbazarliklar barvaqt profilaktikasini tashkil etishda o'zaro hamkorlikni ta'minlash masalalari haqida fikrlar bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** huquqbazarlik, profilaktika, deviant xulq-atvor.

Jamiyat hayotining turli sohalarida inson omili ustun hisoblanadi, ayniqsa, unda voyaga yetmaganlarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning ilmiy, ijodiy, intellektual salohiyatini yuksaltirishga asosiy vazifalardan biri sifatida qaraladi. Shu bilan birlgilikda, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan huquqbazarliklar sonining ortishi, o'smirlar o'rtasida deviant xulqning ommalashuvi kabi holatlar huquqbazarlik profilaktikasi masalasida jamiyatning barcha institutlari tizim sifatida o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borishini taqozo etmoqda. Ushbu tizimning o'ziga xos subyekti sifatida umumta'lim maktablari jamiyatdagi asosiy ta'lim-tarbiya manbai bo'lib qolmay, huquqbazarlik profilaktikasi vositasi ham sanaladi.

Davlatimiz yoshlar masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarib, bugungi kunda aholining yoshlar qatlamiga oid islohotlarni to'la-to'kis amalga oshirib kelmoqda. Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash, yoshlarga oid qonun hujjatlarini takomillashtirish kabi vazifalar bilan bir qatorda voyaga yetmaganlar huquqbazarligining oldini olish masalasi ham dolzarb vazifalar qatoridan joy oldi. Huquqbazarliklarning oqibati bilan emas, balki uning kelib chiqishi sabablarini aniqlash profilaktika ishlarini olib borishning samaradorligini oshirishga asos bo'ladi.

Huquqiy madaniyat – shaxsning qonun, davlat tomonidan o'rnatilgan tartib-qoidalarga riosa etishdagi xulqi, munosabatini bildiradi. Huquqiy madaniyat kishi umumiyl madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Huquqiy madaniyatli bo'lish uchun qonunga riosa etish, qonun asosida ish tutish lozim. Huquqiy madaniyatlilik nafaqat o'z haq-huquqlarini bilih, uni anglab yetish, balki el-yurtga fidoyilik, halollik, o'zgalar huquqini



hurmat qilish, Vatanga sadoqat va ezgu ishlarni hayotiy tamoyilga aylantirib olinganligini ham bildiradi. Huquqiy madaniyatga ega bo'lishda huquqiy ongning o'rni muhimdir. Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir, ya'ni bu kishilarning huquq, qonunga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlari, g'oyalari yig'indisidir. Demak, inson adolatni his etishi, jinoyat va g'ayriqonuniy qilmishlarga nafrat bilan qarashi lozim.

"Huquqshunos olimlarning bundan bir necha asr avval "Huquqni anglash mas'uliyat hissini rivojlantiradi", deb aytgan hikmatli so'zлari hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi. Boshqacha aytganda, mamlakat Prezidenti Sh.Mirziyoyev o'zining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagи ma'ruzasida "Konstitutsiya va qonunlarga hurmat, huquqiy ong va madaniyat har bir fuqaroning, har bir mansabdor shaxsning hayot va faoliyat tarziga aylanmog'i kerak", deb ta'kidlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi, PF-5618-soni "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni bu boradagi ishlarning yanada rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Farmon bilan bir vaqtدا, "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Konsepsiysi" tasdiqlandi. Farmonning maqsadi aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini yanada oshirish, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar bilan uyg'un ravishda fuqarolarning huquqiy bilimlarini oshirib borishning zamonaviy usullarini joriy etish, aholini, xususan, yoshlarni zararli axborotlar hurujidan himoya qilishda mustahkam huquqiy immunitetni shakllantirish hisoblanadi. Farmonda fuqarolar ongiga "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!", degan hayotiy g'oyani mustahkamlash huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalaridan biri etib belgilandi. Bugungi kunda "Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati", degan konseptual g'oya asosida huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil etish davlat organlari va tashkilotlarining ustuvor vazifasi sifatida qayd etildi. Xo'sh, bu vazifa qay tarzda bajariladi? Farmonga muvofiq jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "Shaxs – oila – mahalla – ta'lif muassasasi – tashkilot – jamiyat" tamoyili bo'yicha tizimli va uzviy tashkil



qilinmoqda. Qolaversa, Konsepsiyada alohida bob bilan, “Oilada huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish” ustuvor yo‘nalishi belgilangan bo‘lib, bunda quyidagi yo‘nalishlarda ishlar olib borish belgilangan:

Ta‘lim tizimi huquqbazarliklar profilaktikasi borasida ishlarni olib borishda voyaga yetmaganlarni kuzatish, xulqiy o‘gishlarni payqash, axloqiy o‘zgarishlarni nazorat qilishda ustunliklarga ega. Jumladan:

- O‘quvchilarning kundalik davomatini o‘rganish orqali sababsiz dars qoldiradigan va darsga qatnashga befarq bola va buning nazoratini to‘g‘ri tashkil etmagan oila haqida ma‘lumotlar olish;
- Darslarni o‘zlashtirishda qiynaladigan bolani payqash;
- Maktabga bolaning turli jismoniy jarohatlar (masalan, ko‘karish, kuyish, holsizlik va boshqalar) bilan kelishi zo‘ravonlikka duchor bo‘lganligi ehtimoli yuzasidan o‘rganishlar olib borish;
- Bolaning mактабдаги referent guruhi bilan munosabatini kuzatib borish;
- Darslarga doimiy kechikib kelishiga sabab bo‘lgan sharoitlarni aniqlash;
- Qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolganda yoki ota-onasi ajrashganda yoxud ota-onasidan biri vafot etganida boladagi hissiy va turmush o‘zgarishlarining avval va hozirgi holatini tahlil qilish;
- Bolaning shaxsiy fazilatlari, dunyoqarashi, qiziqishlarini aniqlash kabi vazifalardir.

Umumta‘lim mакtablarida profilaktika ishining vazifalari quyidagilardir:

- ✓ Bolaning hayoti va sog‘ligini muhofaza qilish;
- ✓ Voyaga yetmaganlarning qarovsizligini oldini olish;
- ✓ Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va singdirish;
- ✓ Ijtimoiy, psixologik va shaxsiy xarakterdagi muammolar va qiyinchiliklarni hal qilishda o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish.

Umumta‘lim mакtablarida huquqbazarlik profilaktikasi tadbirlari ikki shaklda amalga oshiriladi: umumi (jamoaviy) profilaktika, yakka tartibdagi profilaktika. Umumi



(jamoaviy) profilaktika – bu o‘quvchilarning umumiyligi jamoasiga qaratilgan, huquqbazarliklarning sabab va sharoitlarini bartaraf etish, o‘quvchilarning huquqiy ongini o‘stirib, qonunlarga rioya etish ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora tadbirlar majmuidir.

Yakka tartibdagi profilaktika ishi — ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo\_igan voyaga yetmaganlar va oilalarni o\_z vaqtida aniqlash, shuningdek ularni ijtimoiy- pedagogik reabilitatsiya qilish hamda voyaga yetmaganlarning huquqbazarliklar yoki boshqa g\_ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etishining oldini olishga doir faoliyatdir.

Umumiy profilaktika tadbirlari doirasida har payshanba umumta‘lim mакtablarida — profilaktika kuni o‘tkazilishi va bu kunda mакtab miqiyosida ommaviy tarbiyaviy profilaktik ishlarga o‘quvchilarning katta qismi jalb qilinishi belgilangan. Jumladan, ”O‘quvchilar davomati va ularning bo‘sish vaqtlarini mazmunli tashkil etish” davra suhbati, —” Internetning salbiy ko‘rinishlari-yoshlar tarbiyasiga ta‘siri” tadbirlari, ”Kelajakka sog‘lom fikr bilan” so‘rovnomasи, — ”Jinoyatchilikning ildizlari” suhbati, ”Yoshlar va qonun” mavzusida yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish borasidagi tadbirlar, ”Jaholatga qarshi kurash” mavzusida debat, —Bola tarbiyasiz tug‘iladimi?” mavzusida suhbat, — ”Ta‘tilni jinoyatlarsiz o‘tkazamiz” shiori ostida tadbirlar majmui va boshqa ko‘plab tadbirlar shular qatoridandir. Ushbu tadbirlar mahalla faollari, profilaktika inspektorlari, diniy tashkilot vakillari, yoshlar yetakchisi va boshqalar ishtirokida tashkil etiladi.

Huquqbazarlik profilaktikasi sohasida shaxslarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy savodxonlikni oshirish, qonunlarga rioya qiladigan fuqarolarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda umumta‘lim maktablarida fan sifatida o‘tiladigan ”Huquqshunoslik” darslari o‘z o‘rniga ega. O‘quvchilarga huquqbazarlik, huquqiy javobgarlik, jazo, jinoyat, huquqbazarlikning oldini olish, huquq va axloq normalari kabi tushunchalar aynan ushbu darslarda yoritilib, mavzuga oid muammoli vaziyatlarni tahlil qilish bilan mustahkamlanadi.

Voyaga yetmaganlar o‘rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklarning oldini olish bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha davlat tuzilmalari va jamoat tashkilotlari faoliyatining asosiy ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Albatta, bugungi kunda jamiyatimiz oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu yoshlar orasida



huquqbazarliklarning o'sish yo'llarini o'rganish va ularning oldini olish samaradorligini oshirishdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, voyaga yetmaganlar huquqbazarligi profilaktikasi bo'yicha umumta'lim maktablarida quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lardi:

- Umumta'lim maktablarida psixologlarning malakasini muntazam oshirib borish va ular uchun ta'lim muassasasi hududida alohida xona ajratish.
- Maktab yoshlar yetakchilari shtatiga qo'shimcha ish o'rnni ajratish.
- Maktablardagi profilaktik ishlarga ijtimoiy ishchilarni jalb qilish. Bunda huquqbazarlik sodir etish havfi ostidagi o'quvchi bilan birgalikda ularning oilasi bilan ishslash imkoniyati kengayadi.
- Umumta'lim maktablarida o'tiladigan huquq darslarida muammoli vaziyatlar kazuslar ishslash amaliyotini kengaytirish. Bunda o'quvchilar nazariy bilimlar bilan birga amaliy tajribani uyg'unlashtirish imkoniga ega bo'lishadi.
- Maktab yoshlar yetakchisi bilan birgalikda maktab ichki nazoratiga olingan o'quvchilarning qobiliyati va qiziqishlarini aniqlash hamda ularni to'garaklarga, seminarlarga jalb qilish amaliyotini takomillashtirish.
- O'quvchilarning genogramma va ekoxaritasini tuzishni yo'lga qo'yish. Bunda o'quvchilarning oila a'zolari va oila bilan aloqada bo'lgan tashkilotlar haqida yetarlicha ma'lumot olish imkonini yaratiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 27 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси// <https://president.uz/uz/lists/view/3119>

2. Жиноят содир этишга мойил бўлган ёшларни аниқлаш ва ёш авлоднинг ҳукуқий саводхонлигини юксалтиришга қаратилган долзарб вазифалар комплекс социологик тадқиқоти// “Оила” илмий-амалий тадқиқот маркази 2019 й., 4 б.



3. Таджиханов У., Саидов А. Ҳукукий маданият назарияси. Дарслик. 2 томли.  
1-том / Масъул муҳаррир академик Уразаев Ш.З. – Тошкент: Узбекистон  
Республикаси ИИВ Академияси, 1998. – Б. 31.

